



**Xasanova Marg‘uba Safar qizi** - Xalqaro Nordik universitetining Psixologiya va maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi. Xalqaro O‘qitish (International Teaching) darajasiga ega maktabgacha ta’lim mutaxassisi.

### **KITOBNI SEVING, BOLALAR!**

Salom, aziz bolajonlar! Bugun siz bilan juda ajoyib bir mavzuda suhbatlashamiz. Bugungi suhbatimiz mavzusi-Kitoblar! Ha, kitoblar – bu shunchaki qog‘ozlar yig‘indisi emas, balki sehrli dunyolarning kaliti. Ularning har bir sahifasida sizni qiziqarli sarguzashtlar, yangi bilimlar va ajoyib qahramonlar kutib turadi. Qani aytингchi, oxirgi marta qachon kitob o‘qidingiz? Maktab darsligidagi kitoblarингizni emas, balki birorta badiiy kitobni nazarda tutayabman. Agar eslay olmayotgan bo‘lsangiz, demak siz kitob o‘qiganligingizga ancha vaqt bo‘libdi! Unda bugundan boshlab kitoblarni sevishni boshlaymiz, xo‘pmi?

Nega kitobni sevish kerak? Kitobni sevib o‘qishingizning bir qancha ijobiylarini tomonlari bor.

Avvalo, kitob sizni dono qiladi. Kitob o‘qiganingizda, yangi narsalarni o‘rganasiz. Masalan, dunyo haqida, qiziqarli voqealar yoki boshqa odamlarning hayoti haqida bilib olasiz. Kitoblar sizni aqli va bilimdon qiladi! Kitob o‘qiganingizda tasavvuringiz ortadi. Chunki, siz kitoblarda uchadigan gilamlar, mehribon sehrgarlar va jasur qahramonlar haqida o‘qishingiz mumkin. Ko‘zlariningizni yumib, siz ham o‘zingizni sehrli o‘rmonlarda yoki katta kemalarda tasavvur qilishingiz mumkin. Shuningdek, kitob o‘qish orqali do‘st topishingiz mumkin. Kitoblarning qahramonlari sizning yaqin do‘stlaringizga aylanadi. Siz ularga hamdard bo‘lasiz, ular bilan birga quvonasiz yoki qayg‘urasiz. Kitoblar sizga do‘stlikni va mehribonlikni o‘rgatadi. Eng muhim tomoni shundaki, ko‘p kitob o‘qisangiz atrofingizdagi insonlar sizni maqtashadi. Ko‘p kitob o‘qigan odamni hamma maqtaydi. O‘qituvchilar, ota-onalar va do‘stlaringiz sizning bilimdonligingizdan hayratda qoladi.

Xo‘sh, qanday qilib kitob o‘qishni sevimli mashg‘ulotga aylantirish mumkin?

Buning uchun sizga hozir bir qancha tavsiyalarni beraman:

1. Sevimli kitobingizni toping.

Balki sizga ertaklar yoqar? Yoki tarixiy voqealar? Balki qiziqarli detektiv hikoyalarni yoqtirarsiz? Sevimli kitobingizni topish uchun kutubxonaga yoki kitob do‘koniga boring.

2. Har kuni biroz kitob o‘qishni odat qiling.

Har kuni 10-15 daqiqa kitob o‘qishga harakat qiling. Masalan, uyquga yotishdan oldin kitob o‘qisangiz, tushlaringiz ham chiroyli bo‘ladi.

3. Do‘stlaringiz bilan o‘qiganlaringizni baham ko‘ring.

Kitob haqida do‘stlaringiz bilan gaplasting. O‘qigan qiziqarli hikoyangizni ularga aytib bering. Balki ular ham o‘sha kitobni o‘qishni xohlashar!

4. Rasmi kitoblarni tanlang.

Rang-barang rasmlar va chiroyli sahifalar sizni kitob o‘qishga undaydi. Ertak kitoblari yoki qiziqarli faktlar to‘plamlari – eng yaxshi tanlov!

Aziz bolajonlar, bilasizmi, men ham kichkina bo‘lganimda kitoblarni juda yaxshi ko‘rardim. Ayniqsa, ertak kitoblarini. Har bir yangi kitobni qo‘lga olganimda, o‘zimni xuddi sarguzashtlarga tayyorlangan qahramondek his qilardim. Siz ham shunday qila olasiz!

Shuning uchun bugundan boshlab kitoblarni sevishni boshlang. Kitoblar sizni yangi olamlar, qiziqarli voqealar va mehribon do‘sstlar bilan tanishtiradi. Esingizda bo‘lsin, kitoblar – bu eng yaxshi do‘sstlar!

Aziz bolajonlar, endi sizlarga bir vazifa beraman. Bugun bir dona kitobni oling va uning birinchi sahifasini o‘qib chiqing. Va ertaga eng yaqin do‘stingizga o‘sha kitob haqida aytib bering, xo‘pmi?

Hammangizga omad!

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Khasanova, M. (2024). THE ROLE OF ETHNOMUSICOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATION: CHALLENGES AND SOLUTIONS IN MUSICOLOGY. Nordic\_Press, 5(0005).
2. Khasanova, M. (2024). USING MODERN INNOVATIVE INFORMATION TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATION. Nordic\_Press, 3(0003).
3. Khasanova, M. (2024). The Development of Education in Central Asia During the Jadid Period (On the Example of Preschool Education). Nordic\_Press, 3(0003).
4. Xasanova Marguba Safar Qizi (2024). MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. Eurasian Journal of Academic Research, 4 (7S), 412-414. doi: 10.5281/zenodo.13291832
5. Berdiyorova, N. (2024). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni joriy etishda uchraydigan muammolar. Nordic\_Press, 3(0003).